

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 243 sahifa.
2025-yil, 13-oktyabr,*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
<i>Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li</i>	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
<i>Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich</i>	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
<i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
<i>Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich</i>	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
<i>Abduraimova Nigora Abdugapparovna</i>	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
<i>Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li</i>	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
<i>Мансурова Сайёра Бахтияровна</i>	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
<i>Xolikova Oydin Olimjonovna</i>	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
<i>Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich</i>	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
<i>Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi</i>	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
<i>Suyunov Asror Baxtiyorovich</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
<i>Z.Teshayev</i>	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
<i>Ismailov Allayor Rashidovich</i>	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
<i>Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li</i>	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
<i>Исмагулова Гульмира Нуралиевна</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i>	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
<i>Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li</i>	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyevna	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	



KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi

boshqarma boshlig'i

e-mail: sh.kurbaniyazov@trm.uz

Annotatsiya: Maqolada korporativ boshqaruv tuzilmalarida moliyaviy munosabatlarning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Jahon iqtisodiyotida kechayotgan tizimli o'zgarishlar, raqobatning kuchayishi va bozor konyunkturasidagi dinamika korporativ moliyaviy munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilishini taqozo etmoqda. Tadqiqotda korporativ moliyaviy munosabatlarning shakllanish mexanizmlari, ularning strategik boshqaruvdagi o'rni va rivojlanish omillari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, qimmatli qog'ozlar bozoridagi tendensiyalar hamda korporativ tuzilmalarning moliyaviy mustaqillikka intilishi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, moliyaviy munosabatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar bozori, strategik rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract: This article examines the development trends of financial relations within corporate governance structures. Systemic changes in the global economy, intensifying competition, and the complex dynamics of market conditions necessitate the advancement of corporate financial relations to a new stage. The study highlights the mechanisms of formation, the role of financial relations in strategic management, and the key drivers of their development. It also analyzes ongoing reforms in Uzbekistan, trends in the securities market, and the increasing pursuit of financial independence by corporate structures.

Keywords: corporate governance, financial relations, investment, securities market, strategic development, economic stability.

Аннотация: В статье рассматриваются тенденции развития финансовых отношений в корпоративных структурах управления. Системные изменения в мировой экономике, усиление конкуренции и сложная динамика рыночной конъюнктуры требуют перехода корпоративных финансовых отношений на новый уровень. В исследовании раскрыты механизмы формирования корпоративных финансовых отношений, их роль в стратегическом управлении и факторы развития. Также проанализированы реформы, проводимые в Узбекистане, тенденции на рынке ценных бумаг и стремление корпоративных структур к финансовой независимости.

Ключевые слова: корпоративное управление, финансовые отношения, инвестиции, рынок ценных бумаг, стратегическое развитие, экономическая устойчивость.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqobat muhiti sharoitida korporativ boshqaruv tizimini samarali tashkil etish iqtisodiy barqarorlik hamda uzoq muddatli rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Jahon iqtisodiyotida kechayotgan tizimli o'zgarishlar, moliya bozorlaridagi noaniqliklar va raqobatning kuchayishi korporativ tuzilmalar oldiga moliyaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, ularning samaradorligini oshirish hamda strategik boshqaruvda moliyaviy mexanizmlardan unumli foydalanish kabi yangi vazifalarni qo'ymoqda.



Mavzuning dolzarbligi, avvalo, korporativ boshqaruv tuzilmalaridagi moliyaviy munosabatlar iqtisodiy tizimda muhim tarkibiy bo'g'in sifatida shakllanib borayotgani bilan izohlanadi. Ushbu munosabatlar orqali korxonalar investitsiyalarni jalb etadi, kapital manbalarini diversifikatsiya qiladi, risklarni boshqaradi hamda foydani qayta taqsimlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bois moliyaviy munosabatlarning rivojlanish tendensiyalari nafaqat korxonalarning ichki samaradorligini, balki ularning bozordagi raqobatbardoshligini belgilovchi omil sifatida ham qaralmoqda.

Shu bilan birga, korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish va moliyaviy munosabatlarning samaradorligini oshirish yo'nalishida yangi imkoniyatlar shakllanmoqda. Xususan, moliyaviy shaffoflikni chuqurlashtirish, hisobot va audit tizimlarini xalqaro standartlarga to'liq moslashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorida emitentlar faolligini oshirish hamda institutsional investorlar ulushini kengaytirish bo'yicha keng istiqbollar mavjud. Raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish va korporativ ijtimoiy javobgarlik tamoyillarini kengroq joriy etish orqali moliyaviy munosabatlarning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi kutilmoqda. Shu bois, korporativ boshqaruv tuzilmalarida moliyaviy munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarini chuqur o'rganish, mavjud tajribalarga asoslangan holda ularni yanada takomillashtirish hamda innovatsion yondashuvlar orqali boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish istiqboldagi iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari xorijiy mamlakatlar olimlari Ye.N. Veasey [1], R.S. Eells [2], A. Berle, G. Means [3], N.K. Chayka [4] kabilarning ilmiy asarlarida yoritilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D. Suyunov, E. Xoshimov [5], Z.A. Ashurov [6], M.B. Xamidulin [7], Sh.N. Zaynutdinov, R.I. Nurimbetov [8], E.X. Mahmudov [9], S.M. Niyazov [10], A. Suyunov [11], S. Elmirzayev [12], J. Qurbonov [13], S. Akramov [14], I.P. Najimov [15] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida korporativ boshqaruvning ilmiy-uslubiy hamda amaliy jihatlari chuqur o'rganilgan.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarga qaramay, korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga doir metodologik masalalar hali ham kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif hamda tavsiyalarning dolzarbligini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasida korporativ boshqaruv tuzilmalarida moliyaviy munosabatlarning rivojlanish tendensiyalari institutsional, iqtisodiy-iqtidoriy va qiyosiy tahlil usullari asosida o'rganildi. Bu jarayonda O'zbekiston va rivojlangan davlatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilindi, moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi statistik ma'lumotlar orqali baholandi. Shu bilan birga, korporativ hisobotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalar kontent-tahlil qilinib, moliyaviy munosabatlarning shakllanish mexanizmi va zamonaviy tendensiyalari aniqlashtirildi. Olingan ma'lumotlar asosida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan tizimli o'zgarishlar, raqobatning kuchayishi va bozor konjunkturasidagi murakkab dinamika kompaniyalar oldiga samarali boshqaruvni shakllantirish bo'yicha yangi talablarni qo'yimoqda. Xususan, korporativ boshqaruv tuzilmalarida iqtisodiy munosabatlarni to'g'ri tashkil etish va ularni strategik boshqarish masalasi zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bunday sharoitda moliyaviy munosabatlarning mohiyati, ularning korporativ tuzilma doirasidagi rivojlanish tendensiyalari hamda ularni shakllantiruvchi omillar ilmiy tahlilni talab qiladi.

Korporativ boshqaruv tizimida iqtisodiy munosabatlar aksiyadorlar, top-menejerlar, kreditorlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi mulkiy hamda foyda taqsimotiga oid aloqalar majmuidir. Mazkur munosabatlar orqali korxonalar kapital manbalarini jalb etadi, aktivlarini boshqaradi, investitsion qarorlar qabul qiladi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu munosabatlar nafaqat ichki korporativ jarayonlarning samaradorligini oshiradi, balki tashqi bozordagi raqobatbardoshlikni ta'minlashda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ularning tuzilishi, shakllanish mexanizmi va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash korporativ strategiyani ishlab chiqishda ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlarida samarali boshqaruv, shaffof hisobot yuritish va audit tizimini kuchaytirish orqali korporativ tizimda iqtisodiy munosabatlarning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganini kuzatish mumkin. Iqtisodiy tizimning bozor mexanizmlariga moslashuvi, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning kengayishi hamda investitsion muhitni yaxshilash bu munosabatlarning rivojlanishida muhim omillar bo'lib xizmat qilmoqda.

Korporativ iqtisodiy munosabatlar rivoji, avvalo, investitsiyalarni jalb etish, daromadlar taqsimoti, dividend siyosati, risklarni boshqarish va moliyaviy nazorat tizimi kabi sohalarida shakllanayotgan aloqalarning mustahkamlanishi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, iqtisodiy avtonomiyani ta'minlash, korporativ boshqaruvda qaror qabul qilish jarayonlarida manfaatdorlikni oshirish hamda biznes jarayonlar samaradorligini ta'minlash uchun iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida korporativ tuzilmalar markaziy o'rinni egallab, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylangan. Bugungi kunda iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari, raqobat muhiti, investitsiya muhiti, davlat siyosati hamda xalqaro integratsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda kechmoqda.

Korporativ tuzilmalarda iqtisodiy munosabatlar, asosan, mulkdorlar, menejerlar, investorlar, davlat va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi moliyaviy, mulkiy, kontrakt va raqobat aloqalari shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu munosabatlar korporatsiyaning ichki tuzilmasi, strategiyasi, resurslar taqsimoti, investitsiya siyosati, dividendlar taqsimoti hamda foydani qayta taqsimlash mexanizmlari orqali rivojlanadi.

So'nggi yillarda kuzatilayotgan tendensiyalar quyidagilar bilan izohlanadi:

korporativ moliyaviy mustaqillikka e'tibor ortmoqda — korxonalar ichki moliyaviy resurslarni safarbar etish, xarajatlarni optimallashtirish va foydani qayta investitsiya qilish orqali iqtisodiy mustaqillikka erishishga intilmoqda;

institutsional investorlar roli kuchaymoqda — pensiya jamg'armalari, investitsiya fondlari va sug'urta kompaniyalari korporativ tuzilmalarda moliyaviy munosabatlarni shakllantiruvchi muhim ishtirokchilarga aylangan;

raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlariga tobora katta e'tibor qaratilmoqda — moliyaviy hisob-kitoblar, korporativ nazorat, budjetlashtirish va biznes jarayonlarning raqamlashuvi iqtisodiy munosabatlar samaradorligini oshirmoqda;

korporativ ijtimoiy javobgarlik (CSR) hamda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) omillarini hisobga olish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda — kompaniyalar o'z faoliyatini ijtimoiy javobgarlik tamoyillari asosida olib borishga intilmoqda, bu esa tashqi manfaatdor tomonlar bilan barqaror iqtisodiy munosabatlarni shakllantirmoqda;

xalqaro standartlarga moslashish va shaffoflikni ta'minlashga intilish kuchaymoqda — xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS), korporativ boshqaruv kodekslari hamda auditorlik shaffofligi orqali ishonchli iqtisodiy munosabatlar poydevori mustahkamlanmoqda;

milliy korporativ boshqaruv siyosati va huquqiy islohotlar, ayniqsa, O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari hamda davlat ishtirokidagi korxonalarda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy munosabatlarning yangi bosqichga o'tishiga zamin yaratmoqda.

Korporativ tuzilmalarda iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish tendensiyalari nafaqat moliyaviy samaradorlikni oshirish, balki korxonaning strategik barqarorligi, investitsion jozibadorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu munosabatlar zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kompaniyalarning uzoq muddatli rivojlanish konsepsiyasini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Korporativ tuzilmalar va davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarning yirik guruhiga qimmatli qog'ozlar bozoridagi moliyaviy aloqalarni kiritish mumkin. Buning sababi shundaki, korporativ tuzilmalar o'z qimmatli qog'ozlarini ushbu bozorlar orqali birjalar vositasida muomalaga chiqarishi, bir tomondan, ularning investitsion faolligini oshirsa, ikkinchi tomondan, O'zbekistonda davlat ulushi mavjud bo'lgan korporativ tuzilmalarning yetakchi roli yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur holat qimmatli qog'ozlar bozorining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini kuchaytiradi va kapitalning erkin aylanishini ta'minlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistondagi mavjud ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali moliyaviy munosabatlarning rivojlanishida korporativ tuzilmalarning tutgan o'rni va faoliyati chuqur o'rganiladi. Shu sababli, quyida ushbu bo'lim boshida qayd etilgan ko'rsatkichlarning O'zbekiston bo'yicha amaldagi holati tahlil qilinadi (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonda 2019-2023-yillarda korporativ tuzilmalar soni haqida ma'lumot¹

O'zbekistonda so'nggi besh yil davomida korporativ tuzilmalar soni hamda ularning fond birjasi listingiga kiritilishi bilan bog'liq ma'lumotlar yuqoridagi rasmda keltirilgan. Unga ko'ra, 2019-yilda mamlakatda 593 ta korporativ tuzilma — aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) faoliyat yuritgan bo'lib, ularning 96 tasi moliyaviy munosabatlarning muhim ko'rinishlaridan biri — qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya faoliyatini amalga oshirgan va emitent sifatida "Toshkent" Respublika fond birjasi savdolari listingiga kiritilgan.

2020-yilda esa jami 599 ta AJ faoliyat olib borgan bo'lsa, ularning 100 tasi "Toshkent" Respublika fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq moliyaviy munosabatlarda ishtirok etish uchun listingga kiritilgan. 2021-yilda AJlar soni oldingi yilga nisbatan 8 taga ko'payib, 607 tani tashkil qilgan. Shu bilan birga, AJlar sonining ortishi fond birjasi savdolari listingiga kiritilgan emitentlar sonining ham 105 taga yetishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

2022-yilda O'zbekistonda umumiy hisobda 628 ta AJ faoliyat yuritgan bo'lib, ushbu korporativ tuzilmalarning 110 tasi fond birjasi savdolari listingiga kiritilgan. 2023-yilda esa faoliyat yuritayotgan AJlar soni oldingi yilga nisbatan 3 taga kamayib, 625 tani tashkil etgan. Shunga mos ravishda, fond birjasi savdolarida ishtirok etuvchi emitent AJlar soni ham 2023-yilda 18 taga kamayib, 92 tani tashkil etgan.

Yuqoridagi tahlil asosida aytish mumkinki, moliyaviy munosabatlarda korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy boshqaruv uslublarini joriy etish orqali moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, korporativ tuzilmalarning muhim turi hisoblangan aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish bir qator afzalliklarni ta'minlashi mumkin (2-rasm).



2-rasm. AJlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etishning afzalliklari²

1 O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, "Toshkent" respublika fond birjasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2 Akramov S. Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarning investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2017-yil. № 2, mart-aprel.

Albatta, korporativ boshqaruvning zamon talablariga mos uslublarini joriy etish orqali korporativ tuzilmalarning moliyaviy munosabatlarida samaradorlikka erishish imkoniyati ortadi. Jumladan, moliyaviy munosabatlar sohasida korporativ tuzilmalarga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, xususan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayoni jadallashadi. Korporativ tuzilmalarning samaradorlik ko'rsatkichlari yaxshilanadi, investitsion jozibadorligini oshirish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, boshqaruv jarayonida shaffoflik va ma'lumotlarning oshkoraligi ta'minlanadi, bu esa korporativ boshqaruvda aksiyadorlarning strategik rolini yanada mustahkamlaydi.

Yuqorida qayd etilganidek, korporativ tuzilmalar sifatida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy munosabatlarda qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, fond birjasi listingiga kiritilgan korporativ tuzilmalarning moliyaviy munosabatlaridagi investitsiya faoliyatini tahlil qilish iqtisodiy jarayonlarning holatini baholashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, korporativ tuzilmalarning fond birjasidagi faoliyat ko'rsatkichlari quyida tahlil qilinadi (1-jadval).

1-jadval. Korporativ tuzilmalar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmi tahlili³

Yillar	Korporativ tuzilmalar tomonidan chiqarilgan aksiyalar		Korporativ tuzilmalar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar	
	hajmi, trln so'm	YAIMga nisbatan ulushi, %	hajmi, trln so'm	YAIMga nisbatan ulushi, %
2018	59,4	13,9	0,2	0
2019	99,2	18,6	0,5	0,1
2020	149,5	24,7	0,3	0
2021	153	20,7	0,8	0,1
2022	166,7	18,6	0,9	0,1
2023	189,7	17,8	1,1	0,1

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarida korporativ tuzilmalar moliyaviy munosabatlarining muhim yo'nalishlaridan biri — ularning qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatiga oid ko'rsatkichlar aks ettirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, 2018-yilda korporativ tuzilmalar tomonidan jami 59,4 trln so'mlik aksiyalar muomalaga chiqarilgan bo'lib, ushbu emissiya qilingan aksiyalarning yalpi ichki mahsulotga (YAIM) nisbatan ulushi 13,9 foizni tashkil etgan. Shuningdek, shu yili korporativ tuzilmalar tomonidan 0,2 trln so'm qiymatidagi obligatsiyalar emissiya qilingan.

2019-yilda mamlakatimizda listingga kiritilgan emitentlar tomonidan 99,2 trln so'mlik aksiyalar (YAIMga nisbatan 18,6 foiz) va 0,5 trln so'mlik obligatsiyalar (YAIMga nisbatan 0,1 foiz) emissiya qilingan. Tahliliy ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2020-yilda korporativ tuzilmalar tomonidan 149,5 trln so'mlik aksiyalar va 0,3 trln so'mlik obligatsiyalar chiqarilgan bo'lib, bu aksiyalarning umumiy qiymati YAIMga nisbatan qariyb 25 foizni tashkil etgan. 2021-yilda esa respublika bo'ylab korporativ tuzilmalar 153,0 trln so'mlik aksiyalar hamda 0,8 trln so'mlik obligatsiyalar emissiyasini amalga oshirgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, emissiya qilingan aksiyalarning umumiy qiymati YAIMga nisbatan 20 foizdan oshgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich oldingi yilga nisbatan 4 foizga kamaygan. Obligatsiyalar hajmi esa YAIMning atigi 0,1 foizini tashkil etgan. 2022-yilda korporativ tuzilmalar tomonidan 166,7 trln so'mlik aksiyalar emissiya qilingan bo'lib, ularning YAIMdagi ulushi 18,6 foizni tashkil etgan. Obligatsiyalar bozoridagi real hajm biroz o'zgargan bo'lishiga qaramay, ularning YAIMdagi ulushi oldingi yil darajasida, ya'ni 0,1 foiz atrofida saqlanib qolgan. 2023-yilda korporativ tuzilmalar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hajmida asosiy o'rinni 189,7 trln so'mlik aksiyalar egallagan bo'lib, ularning YAIMdagi ulushi 17,8 foizni tashkil etgan. Obligatsiyalar bozori hajmi esa 1,1 trln so'mni tashkil etgan va bu YAIMning 0,1 foiziga teng bo'lgan.

Mazkur tahliliy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, respublikamizdagi korporativ tuzilmalar moliyaviy munosabatlarini tashkil etishda investitsiya faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq obligatsiyalar emissiyasining bozor kapitallashuvi darajasi juda past bo'lib qolmoqda. 2018–2023-yillar davomida obligatsiyalar hajmining YAIMdagi ulushi 0,1 foizdan oshmagan. Bu holat, o'z navbatida, korporativ tuzilmalar moliyaviy munosabatlarini, xususan, investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Ilmiy tadqiqotda qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, korporativ tuzilmalar moliyaviy munosabatlarining asosiy qismini investitsiya faoliyati tashkil etishini inobatga olgan holda, "Toshkent" Respublika fond birjasida

3 O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, "Toshkent" respublika fond birjasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



qurilish materiallari sohasida faoliyat yurituvchi korporativ tuzilmalarning moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korporativ boshqaruv tuzilmalarida moliyaviy munosabatlarning samarali tashkil etilishi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Xususan, aksiyadorlar, investorlar, kreditorlar va davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarning shaffof va tizimli yo'lga qo'yilishi kapital bozorini rivojlantirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash hamda makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga xizmat qiladi. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, korporativ hisobot tizimini takomillashtirish va raqamlashtirish jarayonlari moliyaviy munosabatlarning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, korporativ boshqaruvda moliyaviy munosabatlarni tartibga solishda xalqaro standartlar — IFRS, ESG tamoyillari va korporativ boshqaruv kodekslarini keng joriy etish orqali hisobot hamda audit tizimining shaffofligini ta'minlash zarur. Ikkinchidan, korporativ tuzilmalarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish va kapital bozorida ularning faol ishtirokini kengaytirish uchun institutsional investorlar ishtirokini faollashtirish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali moliyaviy jarayonlar samaradorligini oshirish, xususan, elektron hisobot yuritish hamda onlayn nazorat tizimlarini yo'lga qo'yish talab etiladi. To'rtinchidan, korporativ boshqaruvda moliyaviy munosabatlarning barqarorligini ta'minlash maqsadida soliq va moliya mexanizmlarini liberallashtirish, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar bozoridagi tartib-taomillarni soddalashtirish lozim. Beshinchidan, korporativ tuzilmalarda ijtimoiy javobgarlik va ESG tamoyillarini amalga oshirish orqali tashqi manfaatdor tomonlar bilan uzoq muddatli barqaror moliyaviy munosabatlarni shakllantirishga e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Veasey E.N. The Emergence of Corporate Governance as a New Legal Discipline // The Business Lawyer. – August 1993. – Vol.48, Issue 4. - P.1267-1271;
2. Eells R.S.F. The Meaning of Modern Business: An Introduction to the Philosophy of Large Corporate Enterprise. – New York: Columbia University Press, 1960. – 427 p;
3. Berle A., Means G. The modern Corporation and Private Property – New York: Macmillan, 1932. – 478 p.;
4. Чайка Н.К. Оценка уровня развития корпоративного управления / Н.К. Чайка // СТИН. – 2024. – № 1. – С. 20-24.
5. Суюнов Д., Хошимов Э. Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув самарадорлигини баҳолашнинг методологик жиҳатлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2018 йил;
6. З.А.Ашуров. Корпоратив бошқарув концепцияси ва моҳияти: илмий-назарий ёндашувлар ва уларни ривожлантириш. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2015 йил;
7. Хамидулин М.Б. Финансовые механизмы корпоративного управления. Монография. – Т.: Молия, 2008. –204 с;
8. Зайнутдинов Ш.Н., Нуримбетов Р.И. Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (региональный аспект) // Бюллетень науки и практики. Электрон. журн. 2017. №10 (23). С. 207-212;
9. Махмудов Э. Х. Промышленность Узбекистана: экономика, размещения, приоритеты развития (вопросы теории и практики) Ташкент: Иқтисодиёт, 2013. 131 с;
10. Ниязов С.М. Экономическое реформирование производственно-технической базы строительства. – Т.: Изд-во «Fan va texnologiya», 2010.-176 с;
11. Суюнов А. Модернизация экономики капитального строительства на основе совершенствования инвестиционных процессов. – Т.: «Fan va texnologiya», 2010.-164 с;
12. Элмирзаев С. Корпоратив молиявий муносабатларда солиқларни режалаштириш масалалари. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2018, 6(114);
13. Қурбонов Ж. Давлат ва корпоратив тузилмалар ўртасидаги ўзаро молиявий муносабатларни самарали ташкил этиш истиқболлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2018, 56 б;
14. Акрамов С. Мамлакатимизда акциядорлик жамиятларининг инвестицион жозибадорлигини ошириш йўллари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2017 йил;
15. Нажимов И.П. Қурилиш материаллари ишлаб чиқариш корхоналарининг барқарор ривожланишини таъминлаш. Монография – Т.: «Lesson Press», 2021. – 141 б.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100